



UO'K: 316.774 + 32.019.5

AXBOROT VA AXBOROT MAKONINING IJTIMOYIY-SIYOSIY KONSEPTUAL ASOSLARI

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПРОСТРАНСТВО И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫTHE SOCIO-POLITICAL CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF INFORMATION AND THE
INFORMATION SPACERasulov Azizxon Mukhamadqodirovich 

Farg'ona davlat universiteti. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Axborot va bilim jamiyat rivojlanishining barcha davrlarida muhim rol o'ynagan. Jamiyat hayotida axborotning ahamiyati va rolini mohiyatan anglashga aloqador holatlarda axborot va bilimning o'zaro aloqasini tushunish alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot va bilim inson omilining barcha sohalarida namoyon bo'layotgan jihatlari bilan ham ajralib turishi muhim ijtimoiy-siyosiy masalalardan biri hisoblanadi. Maqolada alohida faktlarni izlash o'rniga korrelyatsiyalarni, tendensiyalarni o'rnatish uchun ma'lumotlar bazasi qo'llanishi, ilmiy ma'lumotlar informatsion operatsiyalar orqali olinishi bayon etilgan.

Аннотация

Информация и знания играли важную роль во все периоды общественного развития. Понимание взаимосвязи информации и знаний имеет особое значение в ситуациях, связанных с сущностным пониманием значения и роли информации в жизни общества. Одним из важных научных и философских вопросов является различие информации и знания, которое проявляется также во всех сферах человеческого фактора. В статье описывается использование баз данных для установления корреляций и тенденций, а также извлечение научной информации посредством информационных операций, а не поиска отдельных фактов.

Abstract

Information and knowledge have played an important role in all periods of the development of society. Understanding the relationship between information and knowledge is of particular importance in cases related to the essential understanding of the importance and role of information in the life of society. The fact that information and knowledge are distinguished by their aspects manifested in all areas of the human factor is one of the important scientific and philosophical issues. The article describes the use of databases to establish correlations and trends instead of searching for individual facts, and the extraction of scientific information through information operations.

Kalit so'zlar: Axborot makoni, texnologiya, axborotni tahlil qilish, jamiyat, R.Xartli, J. Fon Neyman, N.Viner, K.Shenon, muloqot, davlat siyosati, islohotlar, elektron texnika.

Ключевые слова: Информационное пространство, технологии, информационный анализ, общество, Р.Хартли, Дж. фон Нейман, Н. Винер, К. Шеннон, коммуникация, государственная политика, реформы, электронные технологии.

Key words: Information space, technology, information analysis, society, R. Hartley, J. Von Neumann, N. Wiener, K. Shannon, communication, public policy, reforms, electronic technology.

KIRISH

Bugungi axborotlashish jarayonlarida axborot makonining o'zgarishini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Axborot va axborot makonining metodologik xarakteri va ahamiyatini falsafiy jihatdan tahlil qilinar ekan, bunda avvalo axborot tushunchasining mazmun-mohiyati, genezisi va uning falsafiy talqini xususida fikr yuritishimiz kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangandek, "Xalqaro axborot bozorlariga chiqish, O'zbekistonning ijobiy imidjini ilgari surish mexanizmlari, vositalari va kanallarini birgalikda ishlab chiqish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida etakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirish va hamkorlik aloqalarini o'rnatish" [1.68.] muhimligi ta'kidlangan. Shunga ko'ra jahon axborot makonida mavjudlik va xabardorlik O'zbekiston taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Lug'atlarda axborotga qo'yidagicha ta'rif beriladi, "Axborot (*lot.* informatio - tanishtirish, tushuntirish) - falsafada qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtda yangi, kengroq ma'no kasb etgan markaziy kategoriyalar sifatida maydonga chiqqan tushuncha" dir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotchi Norbert Viner birinchi bo'lib, axborotni jismoniy o'zgaruvchi miqdor sifatida qabul qilish taklifi bilan chiqqan edi. Uning fikricha, jonli tabiat, jamiyat va mashinalardagi barcha boshqaruv va aloqa jarayonlariga axborot uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlari sifatida qaraladi. Biroq aloqaning mazmuni axborot qay tarzda - yozma, og'zaki, rus, ingliz yoki boshqa tillarda, imo-ishora, shartli signal va hokazolar bilan -berilganiga bog'liq emas [3.24.].

Axborotni turli ko'rinishlarda, masalan, yozma ravishda matn orqali, og'zaki tovushlar yordamida, harakatdagi rasmlar kino, video, animatsiya va boshqa ko'rinishlarda ifodalash mumkin. Shu sababli, ajdodlarimiz axborotni har xil toshlarni turli shaklda joylashtirish yordamida, so'ngra papirus yaproqlariga axborotni yozish orqali saqlashgan. Keyinchalik axborot qog'oz kitoblarda nashr etiladigan bo'ldi. Undan keyin esa, mos qurilmalar kashf etilgach, axborotni saqlash uchun fotoplyonka, gramplastinka, magnit plyonka, hozirgi vaqtda esa turli disklar qo'llanila boshlandi.

XXI asr haqqoniy ravishda axborot inqilobi asri, degan nom olgan. Bu asrdagi axborot inqilobining asosini axborot uzatishda tezlik va hajm jihatdan misli ko'rilmagan texnologiyalar rivoji tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, uzatilayotgan turli axborotlardagi texnologik portlash o'zining obyektiv manbalariga ham ega. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalarining ko'p asrlik evolyutsiyasida haqiqatan ham olamshumul kashfiyotlar mavjud. Bular jumlasiga quydalilarni kiritish mumkin: telegraf va rotatsion tipografik mashinaning yaratilishi (1847 y.), telefon (1870 y.), radio (1895-y.), simsiz telegraf (1922 y.), televidenie (1930 y.). 1946 yilda AQShning Sent-Luis shahrida radiotelefon aloqa yaratilgan, bu uyali aloqaning ilk ko'rinishi hisoblanadi. Aynan ular keyingi axborot va axborotlashtirish sohasidagi olamshumul voqea 1986 yil Internetning paydo bo'lishiga olib kelgan [4.13.]. O'z navbatida, axborot sohasidagi inqilobiy o'zgarishlar uning milliy modernizatsiyalashgan masalalarini ham o'rganishga keng yo'l ochib berdi.

Axborot to'g'risidagi birinchi ma'lumotni "Amerikalik olim R.Xartli 1928-yilda texnik aloqa kanallari bo'ylab tarqatuvchi ma'lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun ilk marotaba axborot tushunchasini ilmiy muomalada qo'lladi" [5.103.]. Ammo "axborot" tushunchasiga 1948 yildan boshlab jiddiy e'tibor qaratib ilmiy jihatdan o'rganilib kelina boshlagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Axborot" tushunchasiga atroflicha yondashish va aniq miqdor o'lchovi paydo bo'lishi axborotni o'rganishga katta qiziqish uyg'otdi. XX asrning 60-yillaridagi ko'p tadqiqotlar axborotni qidirish muammolari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni shu davrda axborotlarni qidirish tizimi va usullari yaratildi. Axborotni mustaqil o'rganish mumkin, degan g'oya ilm-fanda axborot har qanday tuzumni boshqarish jarayoniga, mustahkamligi va yashay olishini ta'minlashga bevosita aloqadorligini isbotlagan kibernetika bilan bir vaqtda paydo bo'ldi. Kibernetikaning kelib chiqishi va rivojlanishi bu tushunchaning "aloqa" va "boshqaruv" tushunchalari bilan birga keng qo'llanishiga olib keldi. Kibernetikaning asosiy bo'limlaridan biri axborot nazariyasi bo'lib, unda axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish usullari tadqiq etiladi. Biroq axborot nazariyasi aniqlanish aspekti bo'yicha kibernetikadan kengroqdir.

Hozirgi kunda axborot nazariyasi ilmiy-metodologik jihatdan ham taraqqiy etgan, unga J. Fon Neyman, N.Viner, K.Shenon kabi olimlar asos solganlar. Ular bir-biridan xabarsiz holda axborotning statistik-miqdoriy jihatlarini aniqlaganlar. Bu o'rinda K.Shenonning "Aloqaning matematik nazariyasi" asari katta rol o'ynagan. Ayni shu davrlarda N.Vinerning "Hayvonot va mashina", "Kibernetika yoki boshqaruv" asarlari e'lon qilingan edi. Bu asarlarda asosan axborot nazariyasi haqida fikr yuritiladi. Axborot nazariyasining falsafiy-metodologik muammolari orasida markaziy o'rinni egallaydigan masalalaridan biri "axborot" tushunchasidir. Bu tushuncha ustida tadqiqot olib borgan D.I.Dubrovskiy "axborot – falsafiy kategoriya, chunki u o'zida insonning fenomenologik bilimlarini ham ifoda etadi" [7.156.], degan fikrni bildirib o'tadi.

"Axborot" tushunchasini tahlil qilgan S.B.Lukovkinning fikricha, zamonaviy bosqichda materiya atributi sifatida axborotning umumfalsafiy muammosi uzil-kesil echim topgan emas [8.18.]. Bu masala, o'z navbatida, atributiv va funktsional yondashuvlar o'rtasidagi bahslar mavzuini tashkil qiladi. Shu ma'noda, funktsional yondashuv tarafdorlari axborot fenomenini bilish subyekting mavjudligi bilan bog'lab, uning noorganik tizimlar darajasida funktsionalligini rad qiladilar. Atributiv

SIYOSAT

yondashuv tarafdorlari esa axborot – umumiy xarakteristika, organik va noorganik tabiat materiyasining atributi, degan xulosaga keladilar.

Hozirgi paytda zamonaviy ilmiy adabiyotlarda axborotning ko'plab ta'riflari mavjud. Ammo ularning barchasi munozarali tomonlarga ega. "Okkam ustarasi" qoidasiga ko'ra, "mohiyatlarni zaruriyatdan ortiq ko'paytirish maqsadga muvofiq emas", axborot subyekt – obyekt munosabatlari jarayonida, subyekt «maqsadga qaratilgan harakatlarni o'rgana boshlaganida» vujudga keladi [9.106.]. "Subyekt" tushunchasi barcha jonli tizimlarga nisbatan ishlatiladi.

Fikrimizcha, mazkur muammolarning yana boshqa, birlamchi sabablari ham mavjud. Jumladan, G.Jdanovning fikricha, "jonli olamning atrof – muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganish uchun "materiya" va "harakat me'yori" (energiya) tushunchalari yetarli emas. Bu butunlay yangi axborot tushunchasining qabul qilinishini taqozo etadi". Shu maqsadda, N.Viner, N.Moiseev, G.Jdanov va boshqalar tomonidan axborot tushunchasi fanga kiritildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda axborot tushunchasining ta'riflarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- "axborotning paydo bo'lishi hayot fenomeni bilan bog'liq";
- "axborot subyektning maqsadli faoliyati bilan bog'liq";
- "axborot tartiblangan, tashkillashtirilgan sharoitlarda vujudga keladi";

Tadqiqotchi olim V.Korogodin esa axborotni ma'lum bir algoritim sifatida izohlaydi. Darhaqiqat, axborot algoritimga asoslangan bo'lib, unda ma'lum bir uzviylik aks etadi. Chunki "algoritim" tushunchasi "qat'iy belgilangan qoidalarga muvofiq bajariladigan har qanday hisoblash tizimining umumiy nomlanishini, aniq vazifani bajarishda ketma-ketlik bilan amalga oshiriladigan formal qoidalar to'plamini" ifodalaydi. Ammo, bizning fikrimizcha, algoritim ilmiy bilish usuli sifatida axborot kelib chiqishning mexanizmini aniqlab bermaydi.

Hozirda informatsion yondashuvning qo'llanish sohasi ancha kengaydi. "Axborot" tushunchasi o'z-o'zini tashkillashtirishning deyarli barcha jarayonlarini tadqiq etishda ishlatiladi. Ko'rib turganimizdek, hozirda "axborot" tushunchasi deyarli barcha jabhalarda ishlatilayotgani sababli, axborotning paydo bo'lishi, ta'rifi hamda evolyutsiyasi masalalari dolzarbdir.

Boshqa bir olim M.Eygen o'z ishlarida biologik hayotning paydo bo'lishini tahlil qiladi. Uning fikricha, axborotning kelib chiqishi barcha o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlari bilan bog'liq bo'lib, biologiya uchun axborotning miqdori emas, balki qadr-qimmatini muhimdir. M.Eygenning «seleksion tanlov»iga ko'ra, nafaqat molekullarning tasodifiy kombinatsiyalarini, balki axborotning paydo bo'lishini ham tushuntirish mumkin. «Axborot – makromolekulalarning xossasi va avtoreproduksiya qobiliyatiga ko'ra baholanishidir».

Ta'kidlash lozimki, axborot, bilish jarayonining fenomeni sifatida birinchi bo'lib biologiya fanlarida qo'llanila boshlandi. G.Kastler birinchilardan bo'lib axborot nazariyasini biologiyada qo'llagan. Muallif nihoyatda nozik va unchalik ravshan bo'lmagan xaosdan murakkab tartib hamda axborot hosil bo'lishi jarayonlarining mohiyati to'g'risidagi fikrlarini bayon qilgan. Organik tuzilmalarning paydo bo'lishi, qanday qilib jonsiz tabiatdan hayotning kelib chiqishi, jonli va jonsiz tabiat orasidagi farq muammolari insoniyatni doimo qiziqtirib kelgan. Hayotning paydo bo'lishi, uning fikriga ko'ra, «axborot vujudga kelishining natijasida paydo bo'ladi».

Yana bir olim G.Kastler axborot kelib chiqishning mexanizmini ko'rsatib berdi. Mexanizm tarkibi shundaki, mazkur alohida ketma-ketlik yagona sabab tufayli aniq qayta tiklanadi, ushbu sababga ko'ra u dastlabki matritsali bo'g'indagi subutililik (rishta) bilan mos tushadi. Buning natijasida axborotga ega bo'lgan tizim hosil bo'ladi. "Barqaror tizimni yuzaga keltiruvchi ketma-ketlikni tanlash va tasodifiy tanlashning "eslab qolinishi" axborot yaratish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi, tabiati bo'yicha bu mexanizm axborotni topish mexanizmidan farqlanadi.

Bu yerda "tasodifiy" so'zi tanlov jarayoniga tegishli bo'lib, mexanizmni qo'llash sohasini toraytiradi. Umuman olganda, tanlov tasodifiy bo'lmashligi mumkin (aytib berilgan). Tasodifiy tanlov axborotning generatsiyasiga (ya'ni tartibsiz paydo bo'lishiga) mosdir. «Eslab qolingani» so'zi ajratib qo'yilgan, chunki keyinchalik u juda muhim rol o'ynaydi. U axborotning fiksatsiyasiga (qayd etilishiga) tegishli. Umuman, tanlov esda qolmasligi (ya'ni darhol esdan chiqishi) ham mumkin.

Sifatli axborot xabarining ma'nosi va baholanishi bilan bog'liq bo'ladi. Bu esa semantik jihat deb ataladi. "Biologik axborot hayotni va rivojlanish holatini ta'minlovchi funksional tartibga asoslangandir". Axborotni kodlar orqali uzatish bilan bog'liq murakkab muammolarni chetlab o'tib

shuni ta'kidlash kerakki, bu simvollarning ko'pligi hamda elementar belgi va simvollar o'rtasida aniq muvofiqlik mavjud.

Ma'lumki, irsiyatga oid axborot uzatishning tahlili bu jarayon eng murakkab konstruksiyalar subutli yig'ish bilan bog'liqligini ko'rsatib beradi. Tabiatning o'zi irsiyatni uzatish algoritmini ishlab chiqqan. DNK molekulalari kod rolini o'ynaydi, uning "ko'rsatmasi" bilan organizmning hujayralarida oqsil moddali molekulalarning sintezi yuz beradi. Bu kabi tartibsizlik ko'rinishi kod, shifri anglash, aniqlash G.A.Gamovga tegishli. Hayratda qoldiradigani shuki, beistisno hamma organizmlar, ya'ni sodda ko'k-yashil yo'sinlardan tortib odamgacha o'z hayotida mutlaqo bir xil genetik kodni ishlatishadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, axborot nazariyasi va muvozanatsiz termodinamikadagi axborot paydo bo'lishi sabablarining tahlili modelning to'g'riligini eksperimental yo'l bilan tekshirish mumkinligini aniqlab beradi. Biroq, shu bilan birga, o'z-o'zini tashkillashtirish - fizik printsip, ya'ni ma'lum chegarali shartlar bajarilganida jonli tuzilmalar vujudga keladi hamda rivojlanadi, bu borada funktsional tartibga solinganlikning paydo bo'lishi muqarrar jarayondir.

Ma'lumki, oxirgi yillarda adabiyotlarda obyektiv borliqda mavjud axborot modeli g'oyasi muhokama qilinmoqda. Bu masala bilan jonsiz tabiatdagi rivojlanish masalasi ham bunday yondaShuvni jonsiz tabiatdagi o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlariga nisbatan qanday qo'llash mumkinligiga bog'liq. Ushbu qarashlarga muvofiq, o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlarida alohida axborot tuzilmalari – kodlar mavjud, ular tizim uchun qimmatli axborotni qayd qiladi, uning tarkibiy qismi bo'lib maydonga chiqadi hamda muhit bilan o'zaro aloqadorligi va uning yaxlit holati sifatida qayta tiklanishning yo'llarini aniqlaydi.

Zamonaviy fan bu kabi axborot tuzilmalari va uning vazifalarini jonli va ijtimoiy tizimlarga muvofiq ravishda aniqlagan hamda ta'riflab bergan. Bu biologik organizmlarning genetik apparati – madaniyat, uning ijtimoiy organizmlardagi bazi qadriyati. Muammo bunday yondashuvni jonsiz tabiatning o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlariga qanday yoyish mumkinligida.

Ko'rib chiqilayotgan masalalar juda murakkab bo'lib, umumlashtiruvchi modelni qurishga yordam beradigan nazariy-uslubiy yondashuvlarni talab etadi. Makromolekulalarning o'z-o'zini tashkillashtirishini o'rganib chiqqan G.Kastler axborotning paydo bo'lishi hamda mavjud axborot bilan yashiruvchi shovqinlar o'rtasidagi farqni birinchi bo'lib ko'rsatib bergan. M.Eygen esa axborot qadr-qimmatining funktsional tartibga solingan tushunchasini, biologik rivojlanish davomida uning ahamiyati ortishi hamda «axborot» fenomenining xarakterini tuShunish uchun fundamental ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berdi.

Taqdim etilgan modellar bu jarayonning ayrim tomonlarini muayyan darajada aks ettiradi, biroq jarayonni yaxlit qayta tiklamaydi. Axborot, axborot tuzilmalari to'g'risida yanada yaxlitroq tushuncha quyidagi ta'rifda beriladi: "Axborot – mavjud va teng variantlarda eslab qolingan bitta variantning tanlovi". O'z ichiga jonsiz tabiatdagi o'z-o'zini tashkillashtirish jarayonlarini qamrab olgan qadr-qimmatli axborot generatsiyasining umumlashtirilgan modeli D.I.Chernavskiyning asarida ko'rsatib berilgan. "Axborot generatsiyasi – tasodifan, tashqaridan aytib berishsiz qilingan tanlov" bo'lib, retseptiv va parametrik usullar bilan amalga oshiriladi. Tanlov tegishli kuch hamda xos bo'lmagan omillar (harorat, bosim va shu kabilarning o'zgarishi) orqali amalga oshiriladi.

Ammo bu borada boshqa yondashuv ham mavjud. Ya'ni, axborotning qadr-qimmati o'z-o'zini tashkillashtirish tizimlari tomonidan generatsiya qilinadi. O'z-o'zini tashkillashtirish - chetdan keladigan ta'sirsiz, o'z-o'zidan harakatlanishning muhim ko'rinishi, ayni vaqtda o'z-o'zini boshqarishning asosidir.

Tadqiqotimizdan ma'lum bo'lishicha, biologik tizim – tarixiy yo'naltirilgan rivojlanish bo'lib, o'zining ichki sifatleri tufayli yuqori turuvchi tashkillashtirish darajasiga mustaqil ravishda yotadi. Evolyutsiyaning davomi tizimning murakkablashuvida namoyon bo'ladi. Tarixiy jarayon o'z ichiga oddiy axborot aniqlashni emas, balki paydo bo'lishni oladi. Moddiy borliqda u har qanday dialektik zaruriyatdan mahrum.

Tizimning bifurkatsion vaziyatdan rivojlanishining sinergetik tahlili asosida olimlar materiyaga rivojlanishning vayronkor tendentsiyasi ham, bunyodkor tendentsiyasiga ham xosligini aniqlaganlar. U yangilik, yoki yangi axborotning paydo bo'lishini asoslab beradi. Rivojlanishning bunyodkor yo'li materiyaning yanada yuqoriroq tartibga olib keluvchi sifat jihatidan yangi holatga sakrab o'tib, imkoniyat beruvchi tizimlarning muvozanatsiz holatlarini yaratish va ta'minlashiga asoslanadi.

Materiyaning bunday xususiyati o'z-o'zini tashkillashtirish nomini oldi. Bunyodkor tendensiya tashqaridan modda, energiya va axborot almashuvi bilan ta'minlanuvchi ochiq tizimlarga xos.

SIYOSAT

Rivojlanishning bunyodkor tendensiyasida o'z-o'zini tashkillashtirish bunyodkorlik mexanizmining fizik asosi sifatida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini tashkillashtirish namoyon bo'lishining asosiy sharti – tashqaridan keluvchi energiya tizimda yuz beruvchi energiya dissipatsiyasidan kuchliroq bo'lishi kerak.

XULOSA

Tabiatda bunyodkor jarayonlarning mavjudligi ushbu kashfiyotdan ancha oldinroq e'tirof etilgan, biroq endi materiyaning bunyodkor qobiliyati va yangi axborot almashinuv mexanizmining nazariy asoslarini ochib berish imkoniyati paydo bo'ldi. Fandagi bunday o'zgarishni I.Prigojinning quyidagi so'zlari bilan ifodalash mumkin: "Muvozanatda materiya ko'r bo'ladi, muvozanatdan tashqarida uning ko'zi ochiladi". Bunday yangi yondashuv bizga ayni vaqtda ilmiy tushunchaning zamonaviy darajasini materiyaning progressiv rivojlanishini aks ettirish jarayoni va tuzilmaviy axborotning boyishi bilan bog'lash imkonini beradi.

Axborot modelining mohiyati yaxshi o'rganilgan jarayonlarda axborot modeli (inson, hayvonlarning harakatini tashkillashtirishi kabi) o'z ichiga ham kelajak modelini, ham o'tmishdagi tajribani saqlash asosida taxminiy bashorat qilishni ham qamrab oladi. "Zamonaviy ilmiy bilimlar rivojlanishning yo'naltirilgan jarayoni o'z-o'zini tashkillashtirish aktlari mavjudligida, rivojlanayotgan tizimning kelajak holatlari to'g'risidagi axborot mavjud bo'lgan sharoitda mumkin deb hisoblashga ma'lum asoslar beradi. Bunday axborot tizimning o'zida bo'lishi kerak". Shu ma'noda, biz o'z-o'zini tashkillashtirishga informativlik xos deb hisoblashimiz qilishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. "Адолат" миллий ҳуқуқий ахборот маркази. – Тошкент. 2022. - Б 68.
2. Винер Н. Человек управляющий. – СПб: Питер, 2001. – С.124.
3. Чернов А.А. Становление глобального информационного общества: проблемы и перспективы. –М.: Дашков и К, 2003. – С.113.
4. Хоц А.Ю., Аксюмов Б.В. Информационная революция в контексте трансформации современной культуры // Проблемы философии культуры: Сборник статей. – Ставрополь: СГУ, 1999. – С. 20-24.
5. Хартли Р. Передача информации // Теория информации и её приложения. – М.: Гос. изд. физ.-мат. лит., 1959.
6. Дубровский Д.И., Вержбицкий В.В. Категория информации (философский обзор) // Философские науки. – Москва, 1976. – № 1. –С.156.
7. Луковкин С.Б. Проблемы становления информационного общества в современной философии: Автореф. дисс. Канд.филос.наук. – Мурманск, 2006. – С.118.
8. Моисеев Н.Н. Расставание с простотой. – М., 2000. – С.106.
9. Кастлер Г. Возникновение биологической организации. – М., 1967. – С.220.
10. Эйген М., Винклер Р. Игра жизни. – М., 1979. – С.218.
11. Кабулов В., Файзуллаев А., Назиров Ш. Ал-Харезми, алгоритм и алгоритмизация. – Т.: Фан, 2006. – С.152.
12. Кастлер Г. Возникновение биологической организации. – М., 1967. – С.219
13. Ровинский Р.Е. Синергетика и процессы развития сложных систем // Вопросы философии.- Москва, 2006. – №6, – С.168.
14. Mukhamadqodirovich, R. A. (2020). The role of mass media in the history of the period of independence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(4), 356
15. Mukhamadqodirovich, R. A. (2023). Mass media materials as a source on the history of the republic of Uzbekistan. Journal of innovations in scientific and educational research, 2(14).
16. Расулов, А. М. (2020). Ўзбекистон Республикаси тарихида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Взгляд в прошлое, (SI-1№ 3).
17. Rasulov A.M. Mediasavodxonlik va axborot madaniyatiga oid tushuncha va atamalarning izohli lug'ati. Farg'ona – 2025. B – 144.